

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA ILMIY TADQIQOTLARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Abdusalomov Hasanboy Madaminbek o‘g‘li

Ilmiy rahbar: yu.f.d (PhD) I.H.Atamirzayev

Namangan davlat universiteti

Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986120>

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat-xususiy sheriklik asosida ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. DXShning normativ-huquqiy asoslari, shartnomaviy tartibga solish, intellektual mulk huquqlari, risklarni taqsimlash, monitoring va javobgarlik institutlari ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik, ilmiy tadqiqotlar, huquqiy mexanizm, shartnomaviy tartib, intellektual mulk, risklarni taqsimlash, monitoring, javobgarlik.

Annotation. This article analyzes the legal mechanisms for the practical implementation of scientific research on the basis of Public-Private Partnership. The regulatory framework, contractual regulation, intellectual property rights, risk distribution, monitoring and liability institutions of the DCC are considered from a scientific point of view.

Keywords: public-private partnership, scientific research, legal mechanism, contractual procedure, intellectual property, risk distribution, monitoring, liability.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые механизмы внедрения научных исследований в практику на основе государственно-частного партнерства. С научной точки зрения рассматриваются нормативно-правовые основы ГЧП, договорное регулирование, права интеллектуальной собственности, распределение рисков, институты мониторинга и ответственности.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, научные исследования, правовой механизм, договорная процедура, интеллектуальная собственность, распределение рисков, мониторинг, ответственность.

Kirish

Davlat-xususiy sheriklik zamonaviy huquqiy institut sifatida nafaqat infratuzilma yoki ijtimoiy xizmatlar sohasida, balki ilmiy tadqiqotlar natijalarini iqtisodiyotning real sektoriga tatbiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion rivojlanish modeliga o‘tayotgan davlatlar sharoitida ilmfan natijalarini tijoratlashtirish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish hamda ilmiy salohiyatni iqtisodiy qiymatga aylantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Mazkur jarayonda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi huquqiy jihatdan muvozanatlashtirilgan, manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlovchi va risklarni adolatli taqsimlovchi model sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ta‘lim xizmatlari ko‘rsatishning davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish obyektiv zaruratga aylanib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “...ta‘lim muassasalarini tashkil etishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak”ligini alohida ta‘kidladilar [1].

Bu vazifalarni bajarishda ta‘lim tizimida davlat-xususiy sherikchiligi asosida ta‘lim xizmatlari sifatini oshirishga ta‘sir ko‘rsatishi nuqtai nazaridan maktab, professional va oliy ta‘lim tizimida davlat va xususiy sektor o‘rtasida barqaror munosabatlarni shakllantirish, hududlarda bitiruvchilar raqobatbardoshlik darajasini oshirishda DXShning ta‘lim sohasidagi o‘ziga xos xususiyatlari mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Jahonning rivojlangan davlatlari va Xalqaro tashkilotlari 2030-yilgacha yangi ta‘lim konsepsiyasini qabul qilgan bo‘lib, unda «ta‘lim tizimini boshqarishni, ta‘lim sifatini uni baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu esa o‘z navbatida jahon mamlakatlari uchun ta‘lim tizimi tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini yanada takomillashtirish, samarali ta‘lim tizimida davlat-xususiy sherikligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Huquqshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, ilmiy tadqiqotlarni DXSh asosida amalga oshirish, avvalo, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning alohida turi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

tomonlarning huquqiy maqomi, ularning erkin irodasi, shartnoma erkinligi prinsipi va majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi masalalari markaziy o‘rinni egallaydi. Ilmiy ishlanmani yaratish, uni sinovdan o‘tkazish va keyinchalik ishlab chiqarishga joriy etish jarayoni murakkab ko‘p bosqichli munosabatlardan iborat bo‘lib, har bir bosqich alohida huquqiy rasmiylashtirishni talab etadi.

Shu o‘rinda jahon tajribalarida davlat-xususiy sherikligi tuchunchasini keng talqin qilinadi, jumladan, Jahon banki tomonidan berilgan ta‘rifga e‘tibor qaratamiz: «Davlat-xususiy sherikchiligi - davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘rta yoki uzoq muddatli shartnomalar bo‘lib, ular doirasida davlat sektorining javobgarlik sohasida bo‘lgan, ammo xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar taqdim etiladi, bunda infratuzilmalarni rivojlantirish va (yoki) davlat xizmatlarini ko‘rsatish masalalari o‘rtasida vazifalarni aniq ajratish mavjud». Bu borada mamlakatimizda qonunchilik hujjatlariga e‘tibor qaratsak, jumladan, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida keltirilganidek, “...davlat-xususiy sheriklik — davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi” deb keltirilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihasi - iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilg‘or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui ekanligi qayd qilingan.

Ilmiy tadqiqotlarning o‘ziga xos jihati – yuqori darajadagi noaniqlik va texnologik risk mavjudligidir. Shu bois DXSh mexanizmida risklarni taqsimlash huquqiy jihatdan asoslangan va iqtisodiy jihatdan maqbul bo‘lishi lozim. Odatda, ilmiy-texnik muvaffaqiyatsizlik riski xususiy sherik zimmasiga yuklatiladi, chunki u innovatsion jarayonni bevosita tashkil etadi.

Biroq normativ-huquqiy muhitdagi o‘zgarishlar, davlat tomonidan berilgan kafolatlarning bekor qilinishi yoki tartib-taomillarning o‘zgarishi bilan bog‘liq risklar davlat zimmasida qolishi adolat prinsipiga mos keladi. Bu yondashuv huquqiy barqarorlikni ta‘minlash va investor ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarni DXSh asosida tatbiq etishda institutsional mexanizmlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Texnoparklar, innovatsion klasterlar va biznes-inkubatorlar davlat va xususiy sektor hamkorligining tashkiliy platformasi sifatida maydonga chiqadi. Ularning huquqiy maqomi, boshqaruv modeli va moliyaviy mustaqilligi qonunchilikda aniq belgilangan bo‘lishi zarur. Huquqiy aniqlik investitsion muhit barqarorligining ajralmas sharti hisoblanadi.

Nazorat va javobgarlik masalasi ham huquqiy mexanizmning tarkibiy qismidir. Davlat-xususiy sheriklik shartnomasi ijrosini monitoring qilish, maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishini baholash va majburiyatlar buzilgan taqdirda fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari qo‘llash mexanizmlari aniq belgilanishi lozim. Nizolarni hal etishda sud tartibi bilan bir qatorda arbitraj mexanizmlaridan foydalanish imkoniyati ham nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa shartnomaviy intizomni mustahkamlaydi va investorlar uchun qo‘shimcha kafolat yaratadi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etishda huquqiy mexanizmlar markaziy o‘rin tutadi. Avvalo, mazkur jarayon Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida normalari asosida shartnomaviy-huquqiy tartibga solinadi. DXSh bitimida tomonlarning huquq va majburiyatlari, risklarni taqsimlash, moliyalashtirish manbalari hamda loyiha natijalariga egalik masalalari aniq belgilanishi lozim. Ilmiy ishlanmalar natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlar Fuqarolik kodeksi va maxsus qonunchilik asosida mustahkamlanadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va tijoratlashtirish jarayoni Innovatsion faoliyat to‘g‘risida bilan tartibga solinadi. Huquqiy mexanizm doirasida monitoring, hisobotdorlik va davlat nazorati institutlari joriy etiladi. Majburiyatlar buzilganda fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari qo‘llash imkoniyati kafolatlanadi. Nizolarni hal etish tartibi sud yoki arbitraj orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, bu investorlar uchun qo‘shimcha huquqiy himoya yaratadi. Shunday qilib, huquqiy mexanizmlar ilmiy natijalarni real iqtisodiyotga samarali va barqaror integratsiya qilishning normativ asosini ta‘minlaydi[4].

Xulosa qilib aytganda, davlat-xususiy sheriklik asosida ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etishning huquqiy mexanizmi kompleks xarakterga ega bo‘lib, u konstitutsiyaviy tamoyillar, fuqarolik-huquqiy normalar, investitsiya qonunchiligi hamda intellektual mulk institutlari o‘zaro uyg‘unligida shakllanadi. Mazkur mexanizmning samaradorligi, avvalo, normativ-huquqiy bazaning aniqligi, shartnomaviy tartibga solishning mukammalligi va manfaatlar muvozanatining ta‘minlanganligi bilan belgilanadi. Huquqiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan DXSh modeli ilm-fan

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral
natijalarini real iqtisodiy qiymatga aylantirishga, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga va davlatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politiss/>
2. The World Bank / Vsemirnyy Bank - What are Public Private Partnerships / Shto takoe gosudarstvenno-shastnoe partnerstvo [Elektronnyy resurs]. - Rejim dostupa: <http://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/overview/what-are-public-private-partnerships>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 mayda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-sonli Qonuni. Lex.uz.
4. Public-Private Partnership Law. Yescombe, E.R. *Public-Private Partnership Law and Regulation*. Edward Elgar Publishing, 2018.
5. S.Omonov va J.Zoitov, “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish masalalari”, *Educational Yield Insights & Breakthroughs*, 2023.